

OROLBO'YI HUDUDI IJTIMOIIY-DINIY VA TARIXIY MANZARASI SHAKLLANISH GENEZISI

THE SOCIO-RELIGIOUS AND HISTORICAL LANDSCAPE OF THE ARAL SEA REGION: GENESIS OF ITS FORMATION

ГЕНЕЗИС ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-РЕЛИГИОЗНОГО И ИСТОРИЧЕСКОГО ОБЛИКА ПРИАРАЛЬСКОГО РЕГИОНА

YAKUPOV Aydos K.,

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

Doctoral Student of UNESCO Department
for Comparative Study of World Religions,

A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: yakupovaydos508@gmail.com

Annotatsiya. XIX asr Orolbo'yi xalqlari diniy an'analarini tadqiq qilishda mintaqadagi diniy manzara shakllanish bosqichlarini o'rganish muhimdir. Bu davrda Orolbo'yi xalqlari, xususan, Qoraqalpog'lar, o'zining og'zaki ijodiyotiga juda boy xalq bo'lgan. Xalq ijodi, uning g'oyasi, shakllari va janrlari xilma-xil bo'lib, asrlar davomida xalq o'zining qayg'u-hasratlarini va orzu-armonlarini badiiy shakllarda ifodalagan. Bu ijodning ta'sirchanligi xalqning mentaliteti, tafakkuri va turmush tarziga mos ravishda yanada qimmatlidir. Aynan badiiy adabiyot orqali xalq o'z tarixini, milliy xususiyatlarini va dunyoqarashini yozma adabiyot vositasida tasvirlab bergan. Berdaq kabi buyuk mutafakkirlar bu jarayonni rivojlantirib, xalqning falsafiy qarashlarini, madaniy merosini hamda dunyoqarashini o'z asarlarida aks ettirgan.

1970-80-yillarda arxeologik tadqiqotlar Orolbo'yi va uning atrofidagi yodgorliklarni, jumladan, qadimiy ko'chmanchilarning qabristonlari va diniy marosimlar o'rni kabi obidalarini aniqladi. Ustyurttagi Duana, Jeti asar va Kardar kabi arxeologik yodgorliklar bu hududlarda yashagan ko'chmanchi xalqlarning diniy tushunchalari va dafn marosimlarini o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu joylarda topilgan kulol namunalari va keramika buyumlari, xususan, qabrlarning ichidagi olov qoldirlari, o'likni xotirlash marosimlari va suyaklarni yoqish kabi usullarni o'rganish orqali o'sha davr madaniyati haqida batafsil ma'lumotlar olish mumkin.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi, Qoraqalpog'lar, diniy an'analar, og'zaki ijodiyot, badiiy adabiyot, Berdaq, arxeologiya, Duana, Jeti asar, Kardar, ko'chmanchilar, dafn marosimlari, saklar, massagetlar, hayvonot stili, zargarlik, mifologiya, ijtimoiy tuzum, madaniy aloqalar.

Abstract. The study of religious traditions of the peoples of the Aral Sea region in the 19th century is important for understanding the stages of formation of the religious landscape of the area. During this period, the peoples of the Aral Sea region, particularly the Karakalpaks, were known for their rich tradition of oral folklore. Folk creativity, with its diverse ideas, forms, and genres, has served as a medium through which the people have artistically expressed their sorrows, hopes, and aspirations over the centuries. The emotional resonance of this creativity is particularly valuable as it reflects the people's mentality, worldview, and way of life. Through artistic literature, the people have conveyed their history, national identity, and worldview in written form. Great thinkers such as Berdakh contributed to the development of this process by embodying the philosophical views, cultural heritage, and worldview of the people in their works.

Archaeological research conducted in the 1970s and 1980s identified a number of sites in the Aral Sea region and its surroundings, including cemeteries of ancient nomads and locations associated with religious rituals. Archaeological monuments such as Duana, Jeti Asar, and Kardar on the Ustyurt Plateau are of great significance for studying the religious beliefs and burial practices of the nomadic peoples who once inhabited these areas. Pottery samples and ceramic artifacts discovered at these sites—particularly the remnants of fire within graves, commemorative rites for the deceased, and methods of bone cremation—provide detailed insights into the culture of that period.

Keywords: Aral Sea, Karakalpaks, religious traditions, oral folklore, literary art, Berdaq, archaeology, Duana, Jeti Asar, Kardar, nomads, burial rituals, Scythians, Massagetae, animal style, jewelry, mythology, social structure, cultural relations.

Аннотация. Изучение религиозных традиций народов Приаралья в XIX веке имеет важное значение для понимания этапов формирования религиозного разнообразия региона. В этот период народы Приаралья, особенно каракалпаки, были народом с богатым устным творчеством. Их народное творчество, его идеи, формы и жанры были разнообразны, и на протяжении веков народ выражал свою печаль, скорбь и мечты в художественных формах. Влияние этого творчества особенно важно, поскольку оно отражает менталитет, мышление и образ жизни народа. Через художественную литературу народ изображал свою историю, национальные особенности и мировоззрение с помощью письменной литературы. Великие мыслители, такие как Бердах, развивали этот процесс, отражая философские взгляды, культурное наследие и мировоззрение народа в своих произведениях.

Археологические исследования 1970—1980-х годов выявили памятники в окрестностях Приаралья, включая захоронения и места религиозных обрядов древних кочевых народов. Археологические памятники, такие как Дуана, Жети Асар и Кардар в Устюрте, имеют важное значение для изучения религиозных воззрений и погребальных обрядов кочевых народов, живших в этих районах. Образцы гончарных изделий и керамики,

найденные на этих местах, в частности остатки огнищ внутри могил, предоставляют ценную информацию о культурных практиках того времени, включая обряды почитания усопших и кремацию костей.

Ключевые слова: Приаралье, каракалтаки, религиозные традиции, устное творчество, художественная литература, Бердах, археология, Дуана, Жети Асар, Кардар, кочевники, погребальные обряды, скифы, массагеты, животный стиль, ювелирные изделия, мифология, социальная структура, культурные связи.

KIRISH

XIX asr Orolbo‘yi xalqlari diniy an‘analarini tadqiq qilishda mintaqadagi diniy manzara shakllanish bosqishlarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda Qoraqalpog‘lar xalq og‘zaki ijodiyotiga juda boy xalq hisoblanib, og‘zaki irod namunalari o‘zining mazmuni, g‘oyasi, janrlari hamda shakllari jihatidan juda rang-barang va xilma-xildir. Asrlar davomida xalq o‘zining boshidan o‘tkazgan qayg‘u-hasratlarini, ozod va baxtli hayotga intilgan orzu-armonlari ushaladigan badiiy ijodiyotini yaratib keldi. Uning ta’sirchanligi xalqning mentaliteti, tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi bilan uyg‘unligi orqali yanada qimmatlidir. Badiiy adabiyoti Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq singari buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirib, xalq donoligi bilan butun bir millat, xalq tarixini, milliy xususiyatlarini chuqur ma’noli yozma adabiy til vositasida har tomonlama tavsiflab bergan badiiy ijodiyotdir. Ana shunday badiiy ijodiyotning yorqin namoyondasi Berdaqning bizga qoldirgan boy ma’naviy merosining asl ma’nosini, o‘ziga xos xususiyatlarini, yo‘nalishlarini tadqiq qilish, falsafiy qarashlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

1973-1974-yillarda V.N.Yagodin tomonidan Barsa-Kelmes sho‘r ko‘lining atrofida qabr Sumbetimeralan Kirkureuk yodgorligi ochildi. Majmua kvadrat shaklida (18x18) qo‘rg‘ondan iborat, ichida shimoli-sharqiy, shimoli-g‘arbiy devorlari bo‘ylab tutashgan qism-bo‘lakchalar joylashgan. Bo‘lakchalar bir-biridan xom g‘ishtdan yasalgan devorlar orqali ajralib turadi. Qismlarning eshigi har xil kenglikda. Ularning ichida maxsus yoqilgan olov qoldiqlarining o‘rni bor. V.N.Yagodin fikricha, bu yerda krematsiya – suyakni yoqish va o‘likni xotirlash marosimi tartibi bajarilgan. Xonalarda kichkina tokchalar va supa o‘rinlari mavjud. Bu yerdagi topilgan kulol namunalari Jetiasar va Kardar madaniyatiga juda o‘xshash (Yagodin V., 1978:178).

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Tarix, arxeologiya, va

etnografiya instituti (hozirda, O‘zR FA QQB Gumanitar ilimiy tadqiqot instituti) ekspeditsiyalari tomonidan Ustyurttagi Orol dengizi sohilidagi Duana yonidagi diniy-rasmiy dafn marosimi o‘rni bo‘lgan qabristonda tadqiqot olib borildi. Bu yerdagi jarayonlar muayyan masofada joylashgan uncha baland bp‘lmagan tosh qo‘rg‘on toifasidagi qabrlardan iborat. Qo‘rg‘on – qabrlarning tagida tosh qutilarda yoki chuqurliklarda yakka qabrlar uchraydi. Duana tumanida №110 va №111 qabrlarda izlanishlar o‘tkazildi. Ulardan, suyak qoldiqlari, keramika namunalari topilgan. Duana keramik moddalari Sirdaryo sohillaridagi Jeti asar, quyi Amudaryo deltasidagi Kardar kulolchiligi namunalariga o‘xshash. Ular jumlasiga banka tarzli, xalqa tarzli bezalgan ko‘zalar kiradi. Bu idishlar Jeti asar madaniyati idishlariga juda yaqin. Mazkur belgilarga qarab V.N. Yagodin Duana yodgorliklarini VII-VIII asrlarga tegishi deb hisoblaydi (Yagodin V., 1978:80).

XX asrning oxirgi o‘n yilliklarida V.N.Yagodin tomonidan Ustyurtning Qoraqalpog‘iston hududida kamon o‘qlarining uchi («стреловидные планировки») shaklidagi qoldiqlar tekshirildi. Arxeologik tadqiqotlargacha bunday inshootlar Orol bo‘ylari haqidagi tarixiy-ilmiy adabiyotlarda noma’lum bo‘lib keldi.

V.N.Yagodin tomonidan Ustyurtning sharqiy qismlari (чинк) bo‘ylab bir qancha o‘nlab o‘rinlarda qadimgi ko‘chmanchilar yodgorliklarida tadqiqot olib borildi. Jumladan, shimoliy Ustyurt tizimida Duana, Oqtumshuq o‘rinlarda 13 dan ortiq o‘rinda eski ko‘chmanchilar qo‘rg‘onlari o‘rganildi (Yagodin V., 1978:80).

Umumiy, Duana va Dau-Kesken oraliq‘ida V.N.Yagodin Qaraumbet, Aqjarma, Sekseulsay, Qasqajol, Urga, Berniyaz, Katta Aybuyir, Qulanli, Chachtepa, Borsakelmas vodiysida, Sumbeti meralan Kirkureuk, Ardana 1-2, Ichki Ustyurtda (Churuk) qadimgi va o‘rta asr ko‘chmanchilari yodgorliklarini ochdi.

Bu qo‘rg‘on-yodgorliklar Ustyurt – Orol ko‘chmanchilarining dafn marosimi usullari, diniy tushunchalari borasidagi ma’lumotlarni to‘liqtiradi.

Babish molla I Shirik-rabatdan 400 km shimolda joylashgan bo‘lib, bu qo‘rg‘on-qal’a ko‘pburchakli turda bo‘lgan. Miloddan avvalgi V asrda qurilgan katta Shirik-rabat (850x600 m) qal’asi ichida sak rahbarining maqbarasi joylashgan. Jangadarya bo‘yida Balandi I yodgorliklari S.P.Tolstovning fikriga ko‘ra, massagetlarning bir qismi apasiaklarga tegishli bo‘lgan (Tolstov S., 1961:63).

Quandarya bo‘yida 20 dan ortiq saklarga tegishli shaharlar joylashib, ularning eng kattasi Jetiasar bo‘lib, bularda mil.av. I ming yillikning o‘rtalarida qurilgan.

Bunnan tashqari, saklarning Tegisken, Uygarak nomli qabristonlari ochilib o'rganildi. Saklarning katta bir qismi, o'troq xalq bo'lib dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdogarlik bilan shug'ullangan. Orolbo'yi saklari Jayiq, Sibir, Markaziy Qozog'iston hududlarida yashagan, saklar bilan madaniy-etnik munosabatlarda bo'lgan.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Orolbo'yi saklarining, shahar, qishloq elatlari turar joylari devorlari qo'shni Xorazm, Sug'd davlatlarida keng tarqalgan, kvadrat turdagi g'ishtlardan qurilgan. Baqtriya kulolchi-hunarmandchilarining yasagan buyumlarining saklar orasida ko'p uchrashiga ko'ra bu ikki xalq o'rtasida doimiy madaniy aloqalar bo'lganligidan darak beradi.

Uygarak nomi bilan atalgan tepalik mozori Sirdaryo viloyati deltasi chegarasi va Qizilqum sahrosida joylashgan. Uning balandligi 20 metrdan oshmaydi va sharqiy tomoni jarlik, shimoliy va g'arbiy tomonlari atrofdagi tekislikka tutashadi. 2 km.ga cho'zilgan qabriston Sirdaryoning qadimgi tarmog'ining biri bo'lgan Inkardaryoga qarab tepalikning janubiy tarafini egallagan. Unda saksonga yaqin uch guruhga bo'lingan Sharqiy, Markaziy va G'arbiy qo'rg'on tepaliklar bor.

Tepaliklarning shakli yarim-sfermali, bir qancha to'liqroq balandligi 0,3 dan 2 m. gacha, diametr – 10 dan 40 m. gacha yetadi.

Tepaliklarning yuqori tomonlari Qizil karbonat rangli holda topilgan, ayrim joylarga kichik o'simliklar o'skan. O'rta bo'limida qum bilan to'ldirilganligi aniq ko'rinadi.

Qadimgi davrdagi Xorazm tarixi, Sariqamish havzasi, Ustyurt kengligidagi istiqomat qilgan saklarning hayoti bilan bog'liq. Mil.av. VI-III asrlarda vodiylarda va yaylovlarda istiqomat qilgan sak-sarmatlar I-II asrlarda xunlar v.b qavmlar Xorazm elati bilan uzviy iqtisodiy, madaniy aloqada yashagan. Xorazm hunarmandlari tayyorlagan kulol idishlar sarmatlarning qabrlaridan ko'p miqdorda topildi. Xorazm davlatining shimoli-sharqiy chegarasida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilarning Xorazm hunarmandchilari buyumlariga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida kulol idishlarni tayyorlaydigan qumbiz o'choqlar yasaladi. Ko'chmanchilar o'zlarining moldan olingan mahsulotlarini, o'zlariga kerakli hunarmandchilik narsalariga almashtiradi. Ko'chmanchi Sarmat qavmlarining foydalangan qo'ldan yasalgan kamon o'qlari, zeb-ziynatlar, munchoq, tumor, uzuk v.b. Xorazm shaharlari bo'lgan katta Aybuyir, Gaur qal'a, Daukesken shaharlarining madaniy qatlamlarida uchraydi. Bu Xorazmliklarning qo'shni davlatlar bilan uzviy aloqada bo'lganligini isbotlaydi. Turkiylarining moddiy madaniyatiga tegishli narsalar mil.av. VII-V

asrlarda Altay hududlarida uchraydi. Masalan, yapaloq toshlarni qabrlarga belgi qilib qo'yish, ot bilan marhumlarni dafn qilish marosimlari, O'rta Osiyodagi turkiylarga xos bo'lgan.

Qadimgi ko'chmanchilarning diniy tushunchalarga bog'liq san'at namunasi mil.av III-II asrlarda Janubiy Orolbo'yi yerlariga turkiy qavmlarning aralashishi kuchaydi, ayniqsa shu davrda xunlar, tele etnoslari "Jeti asar"lar bilan birga Xorazmda ham qorishadi. Mil.av VII-V asrlarda saklarning ijtimoiy hayoti harbiy demokratik, konfederativ davlat darajasiga ko'tariladi. Qadimgi davrda sak-massagetlar-sarmatlar, qanglilar, xunlar, tele qavmlari, qadimgi turk etnosiga kiradi.

Janubiy Orol saklari, Eron ahomaniylari, Baqtriya, Xorazm va Xitoyliklarning Chjou hamda Xan imperiyasi davridagi san'at asarlari bilan ham tanish bo'lishgan. Mil.av VIII asrdan boshlab saklar orasida keng tarqalgan hayvonot stili nomli san'at turi ham keng tarqaldi. Bir qancha buyum-narsalarda qo'chqor, tuya, yo'lbars, burgut kabi jonzorlar ko'rinishlari chizildi.

Saklarning tushunchasiga ko'ra xudolar odamlarga qanotli ot tulporlar, qushlar, boshqa hayvonlar shaklida ko'rinadi deb o'ylashgan. Shu obrazlarning mifologiyasi og'zaki afsonalarda keng o'rin olgani uchun «Hayvonot stili» paydo bo'ladi. Saklarning zargarlik san'at asarlari namunasi (zirak, bronzadan yasalgan uzuk, qurollar, hayvonot rasmlari bilan bezalgan buyumlari) Tegisken, Uygarak, Issiq qabrlaridan topildi. Saklarning mifologiyasida: otlar, quyosh va olov bilan bog'liq bo'ladi. Tulpor otlar haqida qoraqalpqlarning Alpomish, Qoblan dostonlarida uchraydi. Saklar dunyoni, tabiatni, kosmosni tushunishda o'zicha tasavvurlarga ega bo'lgan. Mitra, Indra kabi xudolarga bog'liq olam: yer osti dunyosi, o'rta dunyo, yer yuzasi va yuqori dunyolar osmonnin yuqorisi deb tushungan. Ularning tushunchasiga ko'ra dunyoning to'rt tomoni o'ng, chap, oldingi va orqa tomonlari bor bo'lgan. Umumiy olganda sak-massagetlarning «hayvonot stili» sak qavmlarining dunyoni anglab etishidagi haqiqiy ko'rinishi, ularning mifologiyasida san'at asarining tasvirlanishi, saklar mafkurasining shakllanganligini isbotlaydi.

Mil.av VII-VI asrlarda saklarning ijtimoiy tuzumi harbiy demokratik konfederativ davlat darajasiga ko'tariladi. Qadimgi davrda sak-massagetlar, sarmatlar, qanglilar, xunn qavmlari Orolbo'yi xalqlari bilan birgalikda o'zlariga xos moddiy-ruhiy madaniyatni, diniy an'analarni tuzadilar. Shu davrlarda Qoraqalpog'iston hududida qadimgi turk tilida gaplashadigan xalqlar yashaydi.

Qadimgi xalqlarning diniy tushunchalari ularning madaniyat yodgorliklarida ham o'z ko'rinishini topgan. Tasvirlash san'atida ham ularning diniy tushunchalarining belgilari bor.

Qadimgi xalqlar, ko'chmanchilarning san'ati bo'yicha tarixiy manbalarda, Gerodot, Strabon asarlari va hozirgi davr arxeologik materiallarida ko'rinmoqda.

Mil.av. I ming yillikda janubiy Sibir O'rta Osiyodagi turkiylar, Turkiy bo'lmaganlar, indoreron tildosh – "Ariylar", Prototurkiy qavmlarning madaniyatlari bo'yicha arxeologiya ilmida keng o'rganilmoqda. Mil.av VII-VI asrlarda O'rta Osiyo hududlarida saklar, massagetlar, Turk, Xorazm, Sug'd, Baqtriya v.b xalqlar yashagan. Orolbo'ylarida Saklar, apasiaklar, Alan qavmlari yashadilar. Gerodotning ma'lumotlariga binoan, otliq massagetlarda oltin, misdan yasalgan narsalar, zeb-ziynat buyumlari bo'lgan. Eron ahomaniylari hukmronligi davrida Saklar, Dariy I ga qaram bo'lgan va XV satrap (viloyat) sifatida soliq to'lagan. Naqshi-Rustam to'g toshlaridagi yozuvda saklar uch guruhga ajratilganligi ko'rsatilgan: Saka-Tigraxauda, Saka-xaumovarka, Saka-tiay-taradarayya. Shu uch guruh saklarning vatani, makoni, geografiyasi bo'yicha ilmda tortishuvlar juda ko'p. Amudaryo xaznasi deb atalgan saklar san'at asarlarida oltin plastinkada odam (sak) rasmi berilgan. Persepol rel'efida saklar rasmi berilgan, ular Eron shohiga xos ot, v.b olib borgani ko'rsatilgan.

O'rta Osiyo saklarini Fors podshohi Kir II (mil. av 558-530 yy) bosib olgan, ularning shohi Amortani tutqun qilgan, Eron bosqinchilariga sak-amurti, sak-xaumovarka tob'e bo'lgan. Mil.av 530-yilda Kir II sak-massagetlar bilan jangda halok bo'lgan, uning boshini qonli meshga solgan. Behustin tog' yonbag'rida Sak Skunxaning Dariy I oldiga olib kelinganligi rel'efda ko'rsatilgan.

Sardor Skunxa, xanjar, kiygan kiyimlari, qo'li boylangan holda tasvirlangan edi.

Sharq merosida Baqa, baliq rasmlari aniqlandi. Qizil-Rabot yodgorligidan arxeolog B.A.Latvinskiy bronza nishonida Grifon boshini (mil.av III-II asrlar) topdi. Skif-saklar san'at asarlari Sharqiy Turkston, Hindiston yerlaridan topildi.

O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ida sakendr san'at asari bo'yicha S.P.Tolstov boshchiligida Xorazm ekspeditsiyasi a'zolari Uygarq, Tegisken qabristonlarini topdilar (Tolstov S., yili ko'rsatilmagan:136). Orolbo'yi sak-massagetlari bo'yicha W.E.Tagl, V.V.Struve, A.N.Bernshteyn, S.P.Tolstovlar (Tolstov S.P., 1961:74.) yozdi. Sirdaryoning eski tarmoqlari Quandarya, Janadarya bo'ylarida yarim ko'chmanchi chorvalar xo'jaligi yashagan. Sali Varvar qavmlarining yodgorliklari Jeti asar, Shirik-Rabot, Babish mulla, Balandi, Baraqtam, Uygarq, Tegisken yodgorliklarida saqlangan edi.

"Inkardaryo bo'yida Sak-sakafavaklar yodgorligi o'rganildi. Massaget qavmlari botqoqliklar va ko'llarda

yashaganlar", deya yozgan edi Strabon (Strabon, 1994). Botqoqlik va oroldagi saklar-apasiaklar bo'lgan.

Ularning meroslari, "Ko'kshe dengiz madaniyati" deb atalgan, ularning xo'jalik majmuasidan oltin zeb-ziynatlari topildi. Sirdaryo bo'yi Tegisken, Uygarq yodgorliklarini S.P. Tolstov, M.A.Itina tadqiq etishi natijasida saklar mavzoleyi, jasadni yoqish, jasadni dafn qilish xususiyatlari aniqlandi, "Hayvonot" stilida tog' echkisining boshi, ikki hayvon figurasi, arslon, bars shakli, echki haykali, Orolbo'yi saklar san'at asarini va diniy qarashlarini ifoda qiladi.

Tegisken qabridan topilgan oltin nishonga arslon tasviri tushirilgan. Uygarq qabristonidan kiyik shakli topildi. Avvalgi o'rta asrdagi Yevrosiyo ko'chmanchilarining san'at asarida, turkiy qavmlarda, VII-VIII asrlarda, amaliy san'at hukmronlik qildi. Turklarda naqsh o'ymakorligi avvaldan bo'lganligi aniq. Naqshlar kigizga, suyakka, metallarga o'yib yasalgan. Kigizlardagi naqsh, 300 morflik geometrik shakllar bo'lgan. O'simlik shaklidagi gulli bezaklar ko'chmanchilar san'atida katta o'rin egallaydi. Sibir san'atida gilam, kigiz, palas matolarga ham 300 morflik naqshlar berilgan. Hayvonotlar shakli bir-biridan aniq farqlanadi. Sahroyi ko'chmanchilarning san'ati bezak stilida, bir narsaning harakatini beradi. Turkiy rahbarlarning bel kamarida geometrik naqshlar joy olgan. Qadimgi xases (qirg'iz) san'atida oltin nishonda gulli bezak bo'lgan, eski dasturi "Hayvon" stilida ijodkorlikka kirib kelishi "Jivopis"lik uslublar paydo bo'lgan.

300 morflik tasvirlashda "yangi tasvir"lash, gulli geometrik, o'rama sochli naqshlar berish paydo bo'ldi. Qushlar, hayvonlar tasvirida o'simlikni yog'och yonida yaqinroq ko'rsatish bo'ldi. Ko'chmanchilarning taqinchoq-nishoni – buton, shaklda berildi.

Yevrosiyo ko'chmanchilar madaniyatining geometrik, bezakli, archa shaklli, grilistika, ko'zalarga o'yib naqsh chizish va oq pasta (alebastr) chizish uslublari paydo bo'ldi.

Yevrosiyo ko'chmanchilar san'atida: bo'ri, qo'y, echki, to'ng'iz, kiyik, tog' takasi, leopard, yo'lbars, yovvoyi mushuk, quyon, g'oz, o'rdak, turna, qoraqush, burgut, mifikolik burgut, qanotli ot, qanotli tuya rasmlari tasvirlandi. Altay qo'rg'onlaridan topildan "Hayvonot" stilidagi rasmlarda yirtqich hayvonlar (leopard, arslon), tuyoqli hayvonlarga (kiyik, qo'y, tuya, ot v.b) tashlanishi, talashi tasvirlangan. Old Osiyo, Eron san'atida hayvonot stili bilan Sibir san'atida o'xshashliklar mavjud. Evropa ko'chmanchilari – skiflar, sarmatlar bilan Osiyo ko'chmanchi saklar, xunlar san'atida hayvonlar urushi, talashishi tarflanadi. Arslon tog' echkisini ovlaydi, leopard kiyikni ovlaydi.

Yo'lbars tog' bo'risiga tashlanadi, burgut grifon bilan arslon grifonining jang qilishi rasmi berilgan. Altay

san'atini arxeologiya ilmda "varvar san'ati" deb ataydi. Janubiy Sibir, Kuba, Zabaykal hududidagi "Hayvonot" stilidagi oltin me'roslar-nishonlar, zeb-ziynat narsalarida baliq, ilon, o'rdak, turna, burgut, kiyik, bo'ri, leopard, ot, arslon, grifonlar rasmlari berilgan. Altay san'atida yo'lbarsning hujum qilishi, ilonning bo'riga, yo'lbars va tuyaning kurashishi, kalxatlar urushi tasvirlangan. Tuba san'ati (mil.av VII-III asrlar) hayvonotlar shaklini oltin va kumushdan yasagan. "Jetisuv" san'atida oltin nishonli to'ng'iz rasmi, oltin panter, oltin burgut, bular hammasi sahroyi sak animalizmidan darak beradi.

Orol mintaqasining Sirdaryo deltasi Uygaraq qabridan mil.av. VI-V asrga xos tog' qo'chqori boshi, oltin bo'ri boshi, "Issiqqo'rg'on"dan boy sak rahbarining me'roslari topildi. Oltin boshli ot siymosi, leopard siymosi, qushlar, oltin arxar, kiyik nishoni, oltin plastinkada chizilgan ot rasmi berilgan.

Yevrosiyo ko'chmanchilari skif-sibir "hayvonot stili" Pamir tog'idan boshlanib, Jetisuv, Ural, Orol mintaqasi bo'ylaridagi chorvalarning madaniyati kiradi.

Orol mintaqasi ko'chmanchilarining loydan kuydirilib ishlangan tutatqich, qurbongoh narsalarida hayvonlar rasmi beriladi. Skif nishonida mahalliy faunlar tog' echkisi, arxar, lochin berilgan. Yevrosiyo ko'chmanchilarida qozon 300 morflik rasmlar bilan bezalgan. Ko'chmanchi sarmatlar san'atida hayvonlar rasmi juda oz. Ular arslon, leopard, ayiq, ot, bo'ri, kiyik, echki shakllarini chizgan. Ko'chmanchilar xanjari, oynasi, qilichi, kamon qopida "hayvon" rasmini chizgan.

Skif san'atida Mesopotomiya, Urartu, Eron, Yunon san'at asarlarining ta'siri seziladi. Skif san'atida birinchi syujet qavm rahbari, podshohi, Odam obrazi, song hayvonot rasmi berilgan. Sibir san'atida hayvonlar rasmi to'liq hukmronlik qilgan.

Skif Sibir "hayvonlar stili" bo'yicha adabiyotlar va manbalar juda ko'p. Rasmlar, inokografik tahlil, san'atning o'z-aro, simvoli, 300 morflik syujetlar, ma'nosi, badiiyligi bo'yicha ilmiy baho berishlar juda ko'p. San'atning manbasi Sibirning bronza davri qadimgi sharq sivilizatsiyasi, o'rmon qavmlari san'ati bilan bog'liq. Bu san'at asarlari magiyaviy, diniy, animizm, totemizm nuqtai-nazarlarini anglatadi.

Yevrosiyo dalalaridagi xalqlar va qavmlarning madaniyati va san'ati bo'yicha, shu jumladan Polovetslar, Mog'ul-tatarlarining san'at asari bo'yicha "hayvonot stili"dagi me'roslari haqida arxeologik adabiyotlarda yangi ma'lumotlar to'plandi. Daslabki temir asridan boshlab Prichernomorya, Priazov, Quyi Volga, Qozog'iston, Altay, Sibir, G'arbiy Sibir, Ural, Priaralya bo'ylaridagi chorvalarining san'at asarlarida "300 morflik" syujetlar o'rin oldi.

Qora dengizdan Altay tog'larigacha bo'lgan dalalarda ko'chmanchi chorvalar hayoti, ijtimoiy-

iqtisodiy ahvollari, harbiy demokratiyasi, ko'chib-qo'nishi, ma'naviy mafkurasining yaqinligi, san'at asarining bir toifada bo'lishiga sabab bo'ldi. Ko'chmanchilarning istemol buyumlari, zeb-ziynat taqinchoqlari, ko'zalari, diniy urf-odatlar va dasturlarida "hayvonot stili"da rasmlar chizish o'rin oldi. Sibir, Altaydan boshlab ko'chmanchi chorvalarni umumlashtiruvchi atamada "skif", "sak", "massaget", "xunn", "sunn", "gunn" deb atalgani ma'lum.

Mil.av. I ming yillikdan boshlab Yevrosiyo ko'chmanchilarining san'at asarlaridagi "300 morflik" syujetlari, motivlar bo'yicha MGU professori G.A.Federov-Davidov tahlil qildi. Ko'chmanchilarning "hayvonot stili"dagi me'roslari Issiqqo'rg'on, Paziriq, Bashadar, Tuektin, Katandin va AltayQo'rg'ondan topildi, bular mil.av VI-IV asrlarga xos bo'lgan. Yevrosiyo dalasidagi turkiy-pecheneglar, xazarlar san'atida o'simlik, geometrik, archa daraxti shaklidagi naqshlar keng tarqalgan. Erta o'rta asrlarda hayvonotlar, qushlar rasmini doira shaklida chizdi. Erta o'rta asrlardagi hayvonotlar stili bo'yicha avvalgi Sibirskif san'atidan farqi bilan ajralib turadi. San'at asarida "hayvon" motivi emas, aksincha sabzavot-to'qima naqsh bezaklari ustunlik qilgan. Erta o'rta asrlarda san'atda 300 morflik syujetlar "Gibrid" mazmunga o'tdi.

Odam, hayvon, qush rasmlari dekorativ motiv oldi, bular bezaklar bilan bezaldi.

Turkiy qavmlarda (VII-VIII asrlar) uchburchak, geometrik bezaklar keng tarqaldi, shuningdek antropomorflik syujet, bezak ko'chmanchilar san'atida an'anaviy bo'lgan.

Qadimgi davrdagi Xorazm tarixi, Sariqamis havzasidagi, Ustyurt kengligida istiqomat qilgan saklarning hayoti bilan bog'liq. Mil.av VI-III asrlarda kenglik dalalarda, yaylovlarda yashagan sak-sarmatlar I-II asrlarda gunnlar v.b qavmlar Xorazm elati bilan uzviy iqtisodiy, madaniy aloqada bo'lgan. Xorazm hunarmandlari tayyorlagan kulol idishlar sarmatlarning qabrlaridan ko'proq topildi. Xorazm davlatining shimoli-sharqiy chegarasida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilarning Xorazm hunarmanchilari buyumlariga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida kulol idishlarni tayyorlaydigan qumiz o'choqlar yasaladi. Ko'chmanchilar o'zlarining moldan olingan mahsulotlarini, o'zlariga kerakli hunarmandchilik narsalariga almashtiradi. Ko'chmanchi Sarmat qavmlarining foydalangan qo'ldan yasalgan kamon o'qlari, zeb-ziynatlar, munchoq, tumor, uzuk v.b. Xorazm shaharlari bo'lgan katta Aybuyir, Gaur qal'a, Daukesken shaharlarining madaniy qatlamlarida uchraydi. Bu Xorazmliklarning qo'shni davlatlar bilan uzviy aloqada bo'lganligini isbotlaydi. Turkiylarining moddiy madaniyatiga tegishli narsalar mil.av VII-V

asrlarda Altay hududlarida uchraydi. Masalan, yapaloq toshlarni qabrlarga belgi qilib qo'yish, ot bilan marhumlarni dafn qilish marosimlari, O'rta Osiyodagi turkiylarga xos bo'lgan.

Mil.av. III-II asrlarda Janubiy Orolbo'yi yerlariga turkiy qavmlarning aralashishi kuchaydi, ayniqsa shu davrda xunlar, tele etnoslari "Jeti asar"lar bilan birga Xorazmda ham qorishadi. Mil.av VII-V asrlarda saklarning ijtimoiy hayoti harbiy demokratik, konfederativ davlat darajasiga ko'tariladi. Qadimgi davrda sak-massagetlar-sarmatlar, qanglilar, xunlar, tele qavmlari, qadimgi turk etnosiga kiradi.

Janubiy Orol saklari, Eron ahomaniylari, Baqtriya, Xorazm va Xitoyliklarning Chjou hamda Xan imperiyasi davridagi san'at asarlari bilan ham tanish bo'lishgan. Mil.av VIII asrdan boshlab saklar orasida keng tarqalgan hayvonot stili nomli san'at turi ham keng tarqaldi. Bir qancha buyum-narsalarda qo'chqor, tuya, yo'lbars, burgut kabi jonzorlar ko'rinishlari chizildi.

Saklarning tushunchasiga ko'ra xudolar odamlarga qanotli ot tulporlar, qushlar, boshqa hayvonlar shaklida ko'rinadi deb o'ylashgan. Shu obrazlarning mifologiyasi og'zaki afsonalarda keng o'rin olgani uchun "Hayvonot stili" paydo bo'ladi. Saklarning zargarlik san'at asarlari namunasi (zirak, bronzadan yasalgan uzuk, qurollar, hayvonot rasmlari bilan bezalgan buyumlari) Tegisken, Uygaraq, Issiq qabrlaridan topildi. Saklarning mifologiyasida: otlar, quyosh va olov bilan bog'liq bo'ladi. Tulpor otlar haqida qoraqalpoqlarning Alpomish, Qoblan dostonlarida uchraydi. Saklar dunyoni, tabiatni, kosmosni tushinishda o'zicha tasavvurlarga ega bo'lgan. Mitra, Indra kabi xudolarga bog'liq olam: yer osti dunyosi, o'rta dunyo, yer yuzasi va yuqori dunyolar osmonnin yuqorisi deb tushungan. Ularning tushunchasiga ko'ra dunyoning to'rt tomoni o'ng, chap, oldingi va orqa tomonlari bor bo'lgan. Umumiy olganda sak-massagetlarning "hayvonot stili" sak qavmlarining dunyoni anglab etishidagi haqiqiy ko'rinishi, ularning mifologiyasida san'at asarining tasvirlanishi, saklar mafkurasining shakllanganligini isbotlaydi.

Mil.av VII-VI asrlarda saklarning ijtimoiy tuzumi harbiy demokratik konfederativ davlat darajasiga ko'tariladi. Qadimgi davrda sak-massagetlar, sarmatlar, qanglilar, xunn qavmlari Orolbo'yi xalqlari bilan birgalikda o'zlariga xos moddiy-ruhiy madaniyatni, diniy an'analarni tuzadilar. Shu davrlarda Qoraqalpog'iston hududida qadimgi turk tilida gaplashadigan xalqlar yashaydi.

MUHOKAMA

XIX asr Orolbo'yi xalqlarining diniy an'alarini tadqiq qilish jarayonida mintaqaning diniy manzarasi

shakllanish bosqichlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda Qoraqalpoqlar xalq og'zaki ijodi, diniy urf-odatlar va qadimgi dafn marosimlari haqida (Nematullo Mukhamedov, Nurulloh Turambetov, 2022:606-615) keng qamrovli dalillar to'plangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida, ayniqsa, V.N.Yagodin tomonidan olib borilgan qazishmalar orqali, mintaqaning diniy amaliyotlari haqida yangi ma'lumotlar kashf etildi. Masalan, Barsa-Kelmes, Duana va boshqa joylardagi yodgorliklar ko'chmanchi xalqlarning dafn marosimlari va diniy rasm-rusumlari borasida muhim dalillarni taqdim etdi. Ushbu tadqiqotlar Orolbo'yi xalqlari orasida turli diniy an'analari, jumladan, krematsiya va hayvonlar bilan bog'liq marosimlar mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Babish Molla, Shirik-rabat va Jeti Asar kabi qadimgi yodgorliklarda olib borilgan izlanishlar sak-massaget qabilalarining diniy tasavvurlari va hayvonot stili san'ati borasida muhim ma'lumotlar taqdim etdi. Ayniqsa, saklarning diniy tushunchalarida tulpor otlar, quyosh va olov muhim o'rin egallagan bo'lib, bu motivlar qoraqalpoqlarning og'zaki ijodida, xususan, Alpomish va Qoblan dostonlarida ham aks etgan.

Miloddan avvalgi davrlardan boshlab Orolbo'yi xalqlari o'rtasida Xorazm, Sug'd va boshqa qo'shni madaniyatlar bilan diniy va madaniy aloqalar shakllangan. Bu jarayon Xorazm kulolchilik an'analari va saklarning turar-joy arxitekturasi o'xshashligida ham ko'zga tashlanadi. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, Orolbo'yi xalqlari hunarmandchilik va savdo orqali uzoq hududlar bilan iqtisodiy va madaniy rishtalar o'rnatgan.

XIX asr Orolbo'yi xalqlari diniy an'analari turli madaniy ta'sirlar va mahalliy qadimiy urf-odatlarining sintezidan shakllangan. Arxeologik tadqiqotlar va og'zaki ijodiy yodgorliklar ushbu xalqlarning diniy e'tiqodlari va marosimlari haqida muhim manba hisoblanadi. Bu tadqiqotlar orqali mintaqadagi diniy e'tiqodlar rivoji va ularning madaniy integratsiyasi chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.

NATIJA

XIX asr Orolbo'yi xalqlari diniy an'alarini tadqiq qilish jarayonida mintaqadagi diniy manzara shakllanishining tarixiy bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi diniy qarashlarni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib, xalqning mentaliteti, tafakkuri va madaniy merosi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida V.N. Yagodin tomonidan Orolbo'yi hududida qadimgi yodgorliklar,

dafn marosimlari, diniy rasm-rusumlar bilan bog'liq joylar o'rganildi. Jumladan, Barsa-Kelmes, Duana, Dau-Kesken, Qaraumbet, Aqjarma kabi yodgorliklardan topilgan keramika namunalari, krematsiya izlari va qabr tuzilmalari orqali diniy marosimlarning xilma-xilligi tasdiqlandi.

Sak-massagetlarning diniy e'tiqodlari va «hayvonot stili» san'ati orqali ularning tabiat va olam haqidagi qarashlari yoritildi. Topilgan buyumlardagi mifologik tasvirlar, zargarlik san'ati namunalari va saklar mafkurasining shakllanganligi aniqlandi.

Orolbo'yi xalqlarining diniy-madaniy rivojlanishi o'ziga xos bo'lib, bu hududdagi xalqlar qadimdan qo'shni madaniyatlar bilan yaqin aloqada bo'lishgan. X especially, Xorazm, Sug'd va Baqtriya bilan bo'lgan madaniy almashinuvlar natijasida diniy an'analar takomillashgan. Orolbo'yi xalqlarining diniy qarashlarini tadqiq etish ularning tarixiy taraqqiyoti va madaniy merosini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

1973-1974-yillarda V.N. Yagodin tomonidan Barsa-Kelmes sho'r ko'lining atrofida Sumbetimeralan Kirkureuk yodgorligi aniqlanib, u yerda krematsiya marosimiga oid arkeologik izlar topildi. Ushbu yodgorlikda kvadrat shaklidagi qo'rg'onlar va ichki bo'laklar xom g'ishtdan qurilgan devorlar bilan ajratilgan. Marosimlar suyaklarni yoqish va o'liklarni eslashni o'z ichiga olgan, va seksiyalarda kichik tokchalar hamda supa o'rinlari mavjud. Bu yerda topilgan keramika namunalari Jetiasar va Kardar madaniyatlari bilan o'xshash.

O'zFA QQB Gumanitar ilmiy tadqiqot instituti ekspeditsiyalari tomonidan Duana qishlog'idagi diniy dafn marosimi o'rni ham o'rganildi. Bu yerda tosh qo'rg'onlar va yakka qabrlarda suyak qoldiqlari va keramika namunalari topilgan. Duana keramika namunalari Sirdaryo va Amudaryo deltasidagi eski madaniyatlar bilan o'xshash bo'lib, bu yodgorliklar VII-VIII asrlarga tegishli deb hisoblanadi.

XX asrning oxirida Yagodin Ustyurtning Qoraqalpog'iston hududida kamon o'qlarining uchi shaklidagi inshootlarni o'rganib, bu kabi tuzilmalar Orol bo'ylarida ilgari ma'lum bo'lmagan edi. Yagodin, shuningdek, Ustyurtning sharqiy qismlarida, xususan, Duana va Oqtumshuq o'rinlarida qadimgi ko'chmanchilarning yodgorliklarini o'rgandi.

Umuman olganda, V.N. Yagodin tomonidan Duana va Dau-Kesken oralig'ida ko'plab qadimgi va o'rta asr ko'chmanchilariga oid yodgorliklar topilgan, jumladan, Qaraumbet, Aqjarma, Sekseulsay, Qasqajol, Urga, Berniyaz va boshqa joylarda yodgorliklar aniqlangan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Herodotus. (2003). The Histories (R. Waterfield, Trans.). Oxford: Oxford University Press. (Original work published ca. 430 BCE).
2. Nematullo Mukhamedov, Nurulloh Turambetov (2022). The History and the Epigraphy of the Memorial Complex of Sultan Uvays-Baba International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Hamburg, Germany. Volume 9, Issue 12 December, 2022 Pages: 606-615. <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v9i12.4402>
3. Страбон. (1994). География (Г. А. Стратановский, тарж.; О. О. Крюгера Пресс. (Original work published ca. 20 CE).
4. Strabon. (2006). Geography (H. L. Jones, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press. (Original work published ca. 20 CE)
5. Tolstov, S. P. (1961). Orolbo'yi skiflari va Xorazm. Sosialistik Ensiklopediya (SE).
6. Tolstov, S. P. (1961). Sirdaryo deltasidagi skif qabilalari. Ichida: S. P.
7. Tolstov, Orolbo'yi skiflari va Xorazm. Sosialistik Ensiklopediya (Сдин, В. (1978). Памятники кочевых племён древности и средневековья. Ичида: Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта. Ташкент.
8. Ягодин, В. (1992). Стреловидные планировки Устюрта. Археология Приаралья, (вып. V). Тошкент.

REFERENCES

1. Herodotus. (2003). The Histories (R. Waterfield, Trans.). Oxford: Oxford University Press. (Original work published ca. 430 BCE).
2. Nematullo Mukhamedov, Nurulloh Turambetov (2022). The History and the Epigraphy of the Memorial Complex of Sultan Uvays-Baba International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Hamburg, Germany. Volume 9, Issue 12 December, 2022 Pages: 606-615. <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v9i12.4402>
3. Страбон. (1994). География (G. A. Stratanovskiy, Trans.; O. O. Kryuger, Ed.; S. L. Utchenko, General Ed.). Moscow: Ladomir.
4. Strabon. (2006). Geography (H. L. Jones, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press. (Original work published ca. 20 CE)
5. Tolstov, S. P. (1961). Orolbo'yi skiflari va Xorazm. Socialist Encyclopedia (SЭ).
6. Tolstov, S. P. (1961). Sirdaryo deltasidagi skif qavmlari. In S. P. Tolstov, Orolbo'yi skiflari va Xorazm. Socialist Encyclopedia (SЭ).
7. Yagodin, V. (1978). Pamyatniki kochevykh plemen drevnosti i srednevekov'ya. In Drevnyaya i srednevekovaya kultura yugo-vostochnogo Ustyurta. Tashkent: [Publisher not specified].
8. Yagodin, V. (1992). Strelovidnye planirovki Ustyurta. Arkheologiya Priaralya, (Issue V). Tashkent: [Publisher not specified].